

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
<b>G.S.Sidiqova</b>	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyası .....	118
<b>X.X.Xaydaraliyev</b>	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
<b>R.A.Hamroqulov</b>	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash .....	128
<b>E.I.Allomov</b>	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari .....	134
<b>T.A.Eshimov</b>	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi .....	147
<b>Q.M.Xakimov</b>	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
<b>Sh.V.Djalalov</b>	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
<b>X.M.Sotvaldiyeva</b>	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari .....	159
<b>S.I.Quziyev</b>	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari .....	162
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Methodology and outcomes of english language teaching .....	168
<b>M.Axmedova</b>	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
<b>G.Astonova</b>	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
<b>G.R.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar .....	179
<b>N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova</b>	
Nutq o'stirishning metodik usullari .....	183
<b>M.S.Ro'ziboyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....	188
<b>N.N.Nabiyeva</b>	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati .....	193
<b>D.I.Asqarova</b>	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar .....	197
<b>D.T.Yuldasheva</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari .....	202
<b>Y.A.Mirzaboyev</b>	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....	206
<b>R.Sh.Sharofutdinova</b>	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari .....	210



**OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR YANGICHA YONDASHUVLAR**  
**НОВЫЕ ПОДХОДЫ К РЕФОРМАМ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**  
**NEW APPROACHES TO REFORM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

**Asqarova Dilafruz Ibroximovna**   
Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Oliy ta'lismiz har bir jamiyatda ilmiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida o'z o'miga ega bo lib kelgan. Har bir mamlakat o'zining ta'lismizini muvofiqlashtirish, rivojlanirish va yangilash orqali o'z iqtisodiy salohiyatini oshirishga intiladi.

Oliy ta'lismizagi islohotlar va yangi yondashuvlар bugungi kunning eng muhim masalalaridan biriga aylangan. Ko'plab davlatlar va mintaqalar o'zlarining oliy ta'lismizini modernizatsiya qilishga harakat qilmoqda, chunki bu ta'lismizni mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida, ilm-fan va texnologiya sohalarida raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'yunaydi.

Oliy ta'lismizagi islohotlar nafaqat ta'limga sifatini, balki yoshlarning dunyoqarashini, ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yangicha yondashuvlар orqali O'zbekiston nafaqat o'z ichki ta'lismizini takomillashtirish, balki xalqaro maydonda ham mustahkam o'r'in egallashga intilmoqda.

Oliy ta'lismizagi islohotlar va yangicha yondashuvlар O'zbekistonning ta'lismizini modernizatsiya qilishga katta yordam bermoqda. Bu jarayon nafaqat ta'limga sifatini oshiradi, balki mamlakatning global ta'lismizagi mavqeini mustahkamlaydi.

Maqolada, oliy ta'lismizagi islohotlar va yangi yondashuvlarning asosiy yo'nalishlari va ularning qanday amaliy dalillarga tayanishi haqida so'z yuritamiz.

**Аннотация**

Система высшего образования была основным фактором научного, культурного и экономического развития каждого общества. Каждая страна стремится увеличить свой экономический потенциал путем координации, развития и обновления своей системы образования.

Реформы и новые подходы в системе высшего образования стали сегодня одним из важнейших вопросов. Многие страны и регионы пытаются модернизировать свои системы высшего образования, поскольку эта система образования играет важную роль в экономическом и социальном развитии страны, а также в обеспечении конкурентоспособности в области науки и техники.

Реформы в системе высшего образования служат обеспечению не только качества образования, но и мировоззрения молодежи, ее активного участия в жизни общества. Посредством новых подходов Узбекистан стремится не только улучшить свою внутреннюю систему образования, но и занять прочное место на международной арене.

Реформы и новые подходы в системе высшего образования помогают модернизировать сектор образования Узбекистана. Этот процесс не только повышает качество образования, но и укрепляет позиции страны в мировой системе образования.

В статье мы рассказываем об основных направлениях реформ и новых подходах в системе высшего образования и на каких практических доказательствах они основаны.

**Abstract**

The higher education system has been a major factor in the scientific, cultural and economic development of every society. Every country strives to increase its economic potential by coordinating, developing and upgrading its education system.

Reforms and new approaches in the higher education system have become one of the most important issues today. Many countries and regions are trying to modernize their higher education systems, as this education system plays an important role in the economic and social development of a country, as well as in ensuring competitiveness in the field of science and technology.

Reforms in the higher education system serve to ensure not only the quality of education, but also the worldview of young people and their active participation in the life of society. Through new approaches, Uzbekistan seeks not only to improve its domestic education system, but also to take a strong place in the international arena.

Reforms and new approaches in the higher education system are helping to modernize the education sector in Uzbekistan. This process not only improves the quality of education, but also strengthens the country's position in the global education system.

*In the article we talk about the main directions of reforms and new approaches in the higher education system and what practical evidence they are based on*

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lif, boshqaruv tizimi, pedagogik metodlar, bilim, takomillashtirish, professor-o'qituvchilar, ta'lif sifati.

**Ключевые слова:** Высшее образование, система управления, педагогические методы, знания, совершенствование, профессорско-преподавательский состав, качество образования.

**Key words:** Higher education, management system, pedagogical methods, knowledge, improvement, teaching staff, quality of education.

## KIRISH

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi aholining turmush tarzini yaxshilashga, yosh avlodning buguni hamda kelajagi ijobjiy bo'lismeni kafolatlanishiga, ta'lif tizimiga yetarli darajada imkoniyatlar yaratishga qaratilgan konseptual harakatlar amalga oshirilmoqda.

Har qanday islohotlar yutuqlar osmoni musaffo bo'lgan tinch zamindar amalga oshadi. Allohma behisob hamdar bo'lsinki bizning mustaqil O'zbekistonimiz ana shunday butun dunyo hamjimayati havas qilayotgan tinchlik xukm surayotgan barqaror zamindir. Shunday ekan jamiyatning taraqqiy etishida, ravnaq topishida yoshlarning xizmati beqiyos ahamiyatga ega. Hurmatli Prezidentimiz ta'kidlaganidek ma'naviyatli yoshlar yurtimiz istiqbollari. "Yurtimizda dunyodagi nufuzli oliygochlarning filiallarini ochib, O'zbekistonni yirik ta'lif markaziga aylantirishni maqsad qilganmiz. Yoshlarimiz yetakchi xorijiy universitetlarda tahsil olib, tajriba orttirib, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishga bel bog'laganlar" [1].

Oliy ta'lif tizimi har bir jamiyatda ilmiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida o'z o'mniga ega bo'lib kelgan. Har bir mamlakat o'zining ta'lif tizimini muvofiqlashtirish, rivojlantirish va yangilash orqali o'z iqtisodiy salohiyatini oshirishga intiladi.

Oliy ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda barcha sohada bo'lgani kabi oliy ta'lif tizimida ham jiddiy islohotlarni amalga oshirib, o'zgaruvchan global talablar va zamon bilan hamohang rivojlanish yo'lini tanladi. Oliy ta'lif tizimidagi islohotlar o'z navbatida nafaqat ta'lif sifati va mazmunini, balki yosh avlodning intellektual rivojlanishini, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu ta'lif dargohida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar B. Shermuhammadov boshchiligidagi ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Bu yutuqlarning zamirida albatta, universitetda ustozlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularga bo'lgan doimiy e'tibor hamda rag'batlar natijasidir. Xususan, Farg'ona davlat universiteti hozirgi kunda Avstraliyaning „UniRank“(tarjimasi — xalqaro universitetlar reytinglari) reyting platformasida mahalliy miqyosda 23-o'rinni band etdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lif tizimini modernizatsiya va raqamlashtirish davrida barcha oliy ta'lif tizimlarida o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro miqyosda oliy ta'lif muassasalarini o'rtaida hamkorlik, tajriba almashish va ta'lif resurslarini onlayn tarzda taqdim etish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xususan, jahonda ko'plab nufuzli universitetlar masofaviy ta'lifni rivojlanishda muvaffaqiyatga erishmoqdalar. MIT (Massachusetts Institute of Technology) va Harvard University kabi nufuzli oliy ta'lif muassasalarini o'zlarining onlayn kurslarini taqdim etib, dunyoning turli burchaklaridan talabalarga ilm olish imkoniyatini yaratmoqda. Bu, o'z navbatida, ta'lifning global miqyosda tengroq bo'lishiga yordam beradi [6].

Yaponiyaning Keio University va University of Tokyo kabi nufuzli universitetlarda talabalar uchun turli tadqiqot va ilmiy konferensiyalar tashkil etilib, akademik erkinlik va mustaqillikni ta'minlash orqali ta'lif sifatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy ta'lif tizimida ta'lif sifatini oshirish — bu har qanday ta'lif islohotining asosiy maqsadi bo'lib, nafaqat talabalarning ilmiy bilimlarini oshirish, balki ularning amaliy ko'nikmalarini, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ta'lif sifatining oshishi oliy ta'lif muassasalarining jamiyat va iqtisodiyotda o'z o'mini mustahkamlashiga, shuningdek, jamiyatning intellektual va iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

**PEDACOGIKA**

Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, va talabalarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlashda muhim rol o'yndaydi. Texnologiyalar nafaqat ta'limning sifatini yaxshilash, balki ta'limning o'ziga xosligi va unga bo'lgan talabni ham o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi, talabalarga yangi imkoniyatlar yaratadi, ular uchun ta'limni osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayoniga tadbiq etilayotgan kollaborativ ta'lim texnologiyalari, masalan, **Google Classroom**, **Microsoft Teams** va **Zoom** kabi platformalar[7, 36], talabalar o'tasida hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu platformalar o'qituvchilar va talabalar o'tasida samarali muloqot va fikr almashishni ta'minlaydi. Talabalar o'zlari bilgan bilimlarni boshqalar bilan baham ko'rish, guruhda ishlash va loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lischadi.

Kollaborativ texnologiyalar, ayniqsa, masofaviy ta'limda talabalarning bir-biriga yordam berishiga, guruhlarda ishlashiga va o'zaro bilim almashishiga imkon yaratadi, bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozorining uyg'unlashishi — bu iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Ta'lim tizimining talablaridan kelib chiqqan holda ishga joylashish va mutaxassislik ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z navbatida jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning o'z bilimlarini va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olishlari uchun ta'lim tizimining jamiyatdagi ehtiyojlar bilan moslashishi zarur[8, 186].

Oliy ta'lim tizimi, odatda, umumiy ilmiy va texnologik bilimlarni taqdim etadi, lekin mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olish, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashni talab qiladi. Bu uyg'unlikni ta'minlash uchun ta'lim va mehnat bozoridagi barcha ishtirokchilar — ta'lim muassasaları, davlat idoralari, ish beruvchilar va talabalar o'tasida samarali hamkorlik o'matilishi lozim[4, 98].

Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning eng muhim jihatlaridan biri boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishdir. Ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi ta'lim sifatini, resurslardan foydalanishni, moliyaviy samaradorlikni, akademik erkinlikni va innovatsiyalarni ta'minlashda muhim rol o'yndaydi. Samarali boshqaruv tizimi universitetlarning dunyo miqyosida raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim jarayonini yangilash va rivojlantirishga imkon beradi.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish, ayniqsa, o'zgaruvchan va katta ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim bozorida oliy ta'lim muassasalarini raqobatbardosh qilishda katta ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, mamlakatning ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va yangi yondashuvlar keng miqyosda ijobji o'zgarishlarga olib kelmoqda. Pedagogik metodlarni modernizatsiya qilish, masofaviy ta'limni rivojlanish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, va barqaror rivojlanishga e'tibor qaratish kabi islohotlar talabalar va professor-o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, bu islohotlar o'zgarayotgan dunyoda zamonaviy ta'lim tizimlarini yaratishga yordam bermoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning oliy ta'lim muassasaları jahoning yetakchi universitetlari bilan hamkorliklarni kengaytirdi. Shuningdek, akademik mobillik imkoniyatlari orqali talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvini ta'minlashni yo'lga qo'ydi. O'zbekistonning o'zi ham talabalarini chet elda o'qishga yuborish imkoniyatlarini oshirdi. "Umid" jamg'romasi kabi dasturlar orqali talabalar uchun bakalavriatura va magistratura bosqichlarini chet elda o'qish imkoniyatlari taqdim etilmoqda. Bu esa mamlakatning global ta'lim tizimiga integratsiyasini ta'minlamoqda.

Shuningdek, islohotlarni amalga oshirishda barcha manfaatdor tomonlar: oliy ta'lim muassasaları, professor-o'qituvchilar, talabalar va davlat organlari o'tasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ta'lim tizimining o'zgarishlarga moslashishiga yordam beradi. Ta'limda amalga oshirilgan islohotlar, o'z navbatida, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va siyosatdagi o'zgarishlarni ham ta'sir qiladi.

Ta'lim sohaidagi yangicha yondashuv sifatida xalqaro hamkorlik Oliy ta'lim muassasalarining o'zaro aloqalarini mustahkamlanishi, jahoning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi,

shuningdek, xalqaro akademik mobilizatsiya imkoniyatlarini yaratish muhim yo'nalishlardan biridi hisoblanadi.

Oliy ta'lif tizimi faqat ilmiy yutuqlar bilan chegaralanmaydi, aksincha, universitetlar ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, jamiyat uchun foydali ilmiy loyihalarni amalga oshirmoqda. Masalan, turli start-up loyixalar orqali oliy ta'lif tizimi ishtirokchilari eko-tizimni saqlash, energiya samaradorligini oshirish va boshqa global muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Start-up loyixalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda yangi pedagogic yondashuvlar muhim asos vazifasini bajarmoqda.

Ta'lif sifatini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo'llash zarur. An'anaviy dars berish uslublaridan tashqari, innovatsion metodlar, masalan, muammoga asoslangan o'r ganish (PBL), loyihaga asoslangan o'r ganish (PJBL), aktiv o'qitish va ta'lifda raqamli texnologiyalardan foydalanish[9, 577] kabi yondashuvlar qo'llanmoqda. Bu metodlar talabalarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishi, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga, o'quvchilarning amaliy bilim va ko'nikmalarni olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muammoli o'qitish ta'lif texnologiyasi talabalarini yuqori darajadagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish va ularga real dunyo muammolarini hal etish imkoniyatlarini yaratish orqali jahon ta'lif reytinglarida yuqori o'rnlarga ko'tarilishga imkon yaratadi.

Oliy ta'lif tizimidagi yana bir yangi yondashuvlardan biri innovatsion texnologiyalarni ta'lif jarayoniga kiritishdir. Elektron darsliklar, interaktiv o'qitish platformalari, va raqamli ilmiy bazalar yaratildi. Bu usullar nafaqat o'quv jarayonini jonlantiradi, balki talabalar va o'qituvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda samarali vositalarni taqdim etadi.

Oliy ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar turli ijobiy natijalarga olib keldi. Ularning ba'zilari quyidagilardir:

- Ta'lif tizimining global miqyosda integratsiyalashuvi, xalqaro reytinglarda O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarining pozitsiyalarining yaxshilanishi.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy laboratoriylar, ilmiy markazlarning tashkil etilishi orqali ta'lif sifatining oshishi.
- Talabalar uchun chet elda o'qish imkoniyatlari yaratilib, global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lif tizimida o'qituvchilarni muntazam ravishda malakasini oshirish, ularni yangi pedagogik metod va texnologiyalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning yuqori sifatli ta'lif berish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi ta'lif sifatini yaxshilashga yordam beradi.

### XULOSA

Oliy ta'lif tizimidagi islohotlar nafaqat ta'lifning sifatini, balki yoshlarning dunyoqarashini, ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yangicha yondashuvlar orqali O'zbekiston nafaqat o'z ichki ta'lif tizimini takomillashtirish, balki xalqaro maydonda ham mustahkam o'r in egallashga intilmoqda.

Oliy ta'lif tizimidagi islohotlar va yangicha yondashuvlar O'zbekistonning ta'lif sohasini modernizatsiya qilishga katta yordam bermoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lifning sifatini oshiradi, balki mamlakatning global ta'lif tizimidagi mavqeini mustahkamlaydi. Ta'lif va mehnat bozorining uyg'unlashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, hamda xalqaro hamkorlikning kengayishi O'zbekiston oliy ta'lif tizimini yanada raqobatbardosh qiladi. Shu bilan birga, bu islohotlar talabalar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratib, jamiyat va iqtisodiyot uchun katta foyda keltiradi.

Ushbu islohotlarning ijobiy samaralari, shubhasiz, kelajakda O'zbekistonning ta'lif tizimini dunyo miqyosida yanada kuchliroq va zamonaviylashtirilgan qilib ko'rsatadi.

Biroq, bu jarayon davom etmoqda va kelgusida qo'shimcha yangiliklar va yangicha uslublar tatbiq etilishi kutilmoqda. Oliy ta'lif tizimining doimiy ravishda yangilanishi va xalqaro talablar bilan moslashtirilishi uning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil bo'ladi

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kun.uz <https://kun.uz>, 2024/08/31
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022.
4. <https://yuz.uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
5. Abdurahmonova G.K "Inson resurslarini boshqarish" kitobi Toshkent-2019 nashri.
6. Masofaviy ta'lim shakli O'zbekistonda tan olinmaydi. *Jamiyat* 16:20 / 15.09.2019 120475
7. Google Classroom platformasida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar. Uslubiy qo'llanma / To'rayeva G.H. / Buxoro: 2020 – 36 b.
8. Rejapov X. X. "Oliy ta'lim xizmatlarini mehnat bozori bilan integratsiyalashuvuni takomillashtirish" Economics and Innovative Technologies ilmiy elektron jumali 185 <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
9. Sulaymanova D. N. "Loyihaga asoslangan o'qitish (pbl) bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida". Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologikpedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumanı 2023-yil 2-iyun 577